

SALAVKIYLAR VA YUNON-BAQTRIYA TARIXINING O'RGANILISHI

Bekmuradov Sandjar Tursunmamatovich

Toshkent amaliy fanlar universiteti dotsenti, PhD

E-mail: stb.uz.com@gmail.com

ANNOTATSIYA

Markaziy Osiyoning qadimgi davlatchiligi shakllanish jarayonlari siyosiy tizimini o'rganishda Salavkiylar va Yunon-Baqtriya podsholigi alohida ahamiyatga ega. Shu boisdan Salavkiylar podsholigi va Yunon-Baqtriya davlatlarining tarixi nafaqat o'tmish ilmiy tadqiqotlari uchun, balki zamonaviy davlat boshqaruvi, madaniyat va iqtisodiyot jarayonlarini tushunish uchun ham muhimdir. Bugungi kunda ushbu davr tarixshunosligini o'rganish dolzarb masalardan biri hisoblanadi.

Kalit so'zlar: Salavkiylar podshohligi, Yunon-Baqtriya podshohligi, Ellin madaniyati, S.P.Tolstov, E.V.Rtveladze, Yevtidem I, Diodot I.

АННОТАЦИЯ

Селевкидское и Греко-Бактрийское царства имеют особое значение для изучения политической системы процессов формирования древней государственности в Центральной Азии. Поэтому история Селевкидского царства и Греко-Бактрийских государств важна не только для научного исследования прошлого, но и для понимания процессов современного государственного управления, культуры и экономики. Сегодня изучение историографии этого периода является одной из наиболее актуальных задач.

Ключевые слова: Селевкидское царство, Греко-Бактрийское царство, эллинская культура, С.П. Толстой, Е.В. Ртвеладзе, Евтидем I, Диодот I.

ABSTRACT

The Seleucid and Greco-Bactrian kingdoms are of particular importance in the study of the political system of the processes of formation of ancient statehood in Central Asia. Therefore, the history of the Seleucid kingdom and the Greco-Bactrian states is important not only for scientific research of the past, but also for understanding the processes of modern state administration, culture and economy. Today, the study of the historiography of this period is one of the most urgent issues.

Keywords: Seleucid Empire, Greco-Bactrian Kingdom, Hellenistic culture, S.P.Tolstov, E.V.Rtveladze, Euthydemus I, Diodotus I.

KIRISH

Antik davrda hukmronlik qilgan Salavkiylar podsholigi va Yunon-Baqtriya davlati Markaziy Osiyo hamda Yaqin Sharq tarixida muhim o‘rin tutgan davlatlar bo‘lib, ularning siyosiy, iqtisodiy va madaniy merosi bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Ellinistik davlat hisoblangan Yunon-Baqtriya Salavkiylar imperiyasining qulashi natijasida Baqtriya va So‘g‘diyona hududida paydo bo‘lgan. U miloddan avvalgi 250-yildan miloddan avvalgi 125-yilgacha mavjud bo‘lgan. Ushbu davlatlar Buyuk Ipak Yo‘lining shakllanishi va rivojlanishiga sezilarli hissa qo‘shgan. Yunon-Baqtriya davlati va Salavkiylar podsholigi savdo aloqalarini kengaytirib, Osiyo va O‘rta Yer dengizi mintaqalari o‘rtasida iqtisodiy va madaniy bog‘liqlikni mustahkamladi. Bu jarayon keyinchalik butun mintaqaning taraqqiyotiga katta ta‘sir ko‘rsatdi. Salavkiylar podsholigi va Yunon-Baqtriya davlati siyosiy jihatdan ham o‘ziga xos tajribaga ega bo‘lib, ularning boshqaruv uslublari keyingi davrlarda mintaqadagi boshqa davlatlarning shakllanishiga ta‘sir ko‘rsatgan. Ushbu davlatlar harbiy yurishlar, diplomatik munosabatlar va ichki boshqaruv tizimlari orqali o‘z hukmronliklarini saqlab qolgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Salavkiylar va Yunon-Baqtriya tarixini o‘rganish miloddan avvalgi III va II asrlarda mavjud bo‘lgan ellinistik davlatlarni o‘rganish bilan bog‘liq. Miloddan avvalgi III asrdayoq *Lagiylar* va Salavkiy imperiyalarining parchalanishi va tanazzulga uchrashi boshlandi. Yunon-Baqtriya podshohlari esa ellinistik dunyoning sharqiy qismini tashkil etgan va boshqa ellinistik podshohlardan va Yunonistondan ancha uzoqda rivojlangan. Salavkiylar va *Lagiylar*¹ o‘rtasidagi Ikkinchi Suriya urushi (miloddan avvalgi III asr o‘rtalari) davrida Baqtriya Salavkiy satrapi Diodot boshchiligidagi mustaqil davlatga aylangan.

Yunon-Baqtriya tarixini o‘rganishning ba‘zi jihatlari bu shu davr tarixidan xabar beruvchi manbalardan foydalanishdir. Mazkur tadqiqot bo‘yicha asosiy manbalar Polibiy, Strabon va Yustin kabi klassik mualliflarning asarlari, shuningdek, numizmatika fani bo‘lib, ular orasida O.Boperachchining asari eng ahamiyatli hisoblanadi. Osmund Bopearachchi Shri-Lankalik tarixchi va numizmatist bo‘lib, u Hind-Yunon va Yunon-Baqtriya podshohlari tangalarini o‘rganish bilan

¹ Ptolemeylar, lagiylar – Qadimgi Misrda hukmronlik qilgan shoxdar sulolasi (miloddan avvalgi 305-30 yillar). Aleksandr (Iskandar)ning sobiq sarkardasi va maxrami diadoxlardan Ptolemey Lag tomonidan asos solingan. Ushbu sulolaning barcha 14 podshosi Ptolemey nomi bilan atalgan. Aleksandr saltanati parchalangach, Misrda Ptolemeylar monarxiyasi qaror topgan.

shug‘ullangan. 1991-yilda u hind-yunon va yunon-baqtriya tangalari bo‘yicha keng qamrovli asar nashr etdi va bu o‘z sohasida etalonga aylandi².

Salavkiylar sulolasi humkronlik davrida Baqtriya, So‘g‘diyona va Parfiya hukmdorlarida ko‘p aholili shaharlar serob edi. Maroqanda, Baqtriya, Niso kabi ko‘plab qadimgi shahar harobalarida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida topilgan manbalar bu hududlarda hunarmandchilik, savdo-sotiq va ho‘jalik ishlari rivojlanganidan dalolat beradi.

Shu o‘rinda ta’kidlab o‘tish joiz, arxeologik ma’lumotlarga ko‘ra, Salavkiylardan avval vujudga kelgan eski shaharlar Baqtra, Maroqanda, Naxshapa, (Qarshi) yirik iqtisodiy madaniy markazlariga aylangan.

O‘z davri manbalariga asoslangan holda V.V.Grigoryev quyidagi fikrni ilgari suradi. Ya’ni, Baqtriyadagi yunon hokimiyati yagona monarxiya tomonidan amalga oshirilmay, davlatlar uyushmasi (ittifoqi) tomonidan amalga oshirilgani, dastavval, nisbatan kuchlilar, ular orasidan “*baqtriyaliklar*” keyin esa “*ularga tobe bo‘lganlar*” haqidagi konsepsiyani ilgari surgan edi. Hozirgi vaqtda ko‘pchilik tadqiqotchilar Yunon-Baqtriya podsholarining boshqargan hududlari shimoliy Afg‘oniston, janubiy O‘zbekiston va Hindukushdan janubidagi ayrim viloyatlar bo‘lganligini e’tirof etishadi. Bu hududlardagi markazlashgan davlatda Diodot I, keyin esa Yevtidem I (ya’ni, mil. avv. III asrning ikkinchi yarmi) davrlarida kuchli podsho hokimiyati mavjud edi deb keltiradi.

E.V.Rtveladze³ esa Yunon-Baqtriya shohligi hukmronlik surgan zamon bu hududlarda hunarmandchilik, madaniyat, shu bilan birga shaharlar va shaharlarning hayoti keng rivoj topgan davr edi deb belgilaydi. Fikrimizcha, aynan antik davrda O‘rta Osiyoning savdo aloqalari bilan bog‘liq rivojlanish Buyuk Ipak Yo‘lining ushbu hududlarni kesib o‘tganligi bilan bog‘liq. Bunga misol tariqasida keltirishimiz mumkinki, aynan shu davrda Baqtriya, So‘g‘diyona va O‘rta Osiyodagi boshqa viloyatlarning iqtisodiy hayoti Salavkiylar davlatining G‘arbiy viloyatlidagidan ancha farq qilganligi so‘zimizning isboti.

A.S.Sagdullayevning fikriga ko‘ra, Salavkiylarning O‘rta Osiyoni bosib olishidan maqsadi yangi davlatchilik barpo etish bilan bog‘liq edi deb ta’kidlaydi. Bu davlat nafaqat turli xalqlarning siyosiy birlashmasi bo‘libgina qolmay, balki uning kelajakda *makedonlar* va *sharq zodagonlari* qon-qarindoshligiga tayangan davlatga aylanishi rejalashtirilgan edi deb o‘z fikrini ilgari suradi.

Fikrimizcha, O‘rta Osiyodagi yunonlar bilan aloqalar mahalliy xalqlar madaniyatining ba’zi tamonlari g‘arbda tarqatuvchi muhim omillardan biriga aylandi.

² Bopearachchi O. Monnaies Greco-bactriennes et Indo-grecques. Catalogue Raisonne. – Paris, 1991. – 535 p.

³ Rtveladze E.V. O‘zbekistonning tarixiy o‘tmishi. *To‘ldirilgan, 2-nashri*. – Toshkent: “San’at Jurnal” nashriyoti, 2009. – B. 75.

Ellin madaniyatida sof yunon madaniy ijodi emas, balki Yunon va Sharq mamlakatlarining o'ziga xos qo'shilishi o'z aksini topgan. Ellin madaniyatining rivojlanishida O'rta Osiyoning katta qismi Salavkiylar davlatida harbiy yo'l bilan qo'shib olinishi ma'lum darajadagi g'arb va sharq o'rtasidagi iqtisodiy va madaniy aloqalarning rivojlanishida turtki bo'lgan. Shu boisdan, bu davlatda mahalliy madaniyat, savdo-sotiq, shahar hayoti, hunarmandchilik va sug'orish ishlari izchil rivojlanib borgan.

Shu o'rinda numizmatik ma'lumotlarga tayanib aytsak, *Soter – qutqaruvchi, Dikayos – adolatparvar, Rverget – ezgulik homiysi* kabi podshohlar bo'lganligini tasdiqlaydi. Salavkiylar sulolasi podshohlari quyidagi ikkita huquqiy asosga ega bo'lganlar:

1. Bosib olish huquqi;
2. Hokimiyatining otadan o'g'ilga meros qoldirish huquqi.

Ko'p hollarda Salavkiylar podshohlari ilohiylashtirilganligini kuzatishimiz mumkin. Bu kabi ma'lumotlar yozma manbalarda uchramasada arxeologik va numizmatik manbalardan bilishimiz mumkin.

Ta'kidlab o'tish joiz Yunon-Baqtriya davlatining madaniyati haqida ularning qay datajada rivojlanganligi haqida ham to'xtalmasdan iloji yo'q, shu boisdan, rus tarixshunoslarining asarlariga to'xtalamiz. Rus tadqiqotchilarida Yunon-Baqtriya davlati masalasi tarixi aynan XVIII asrdan boshlab qiziqish uyg'ota boshladi.

Mavzu bo'yicha birinchi yirik asar yuqorida aytib o'tilgan manbalarga tayanib, G.Z.Bayer tomonidan yozilgan. U 1738-yilda Peterburgda o'zining *“История Бактрийского царства греков”* (*“Yunonlarning Baqtriya qirolligi tarixi”*)⁴ monografiyasini e'lon qildi. Qadimgi adabiy an'analar va numizmatik ma'lumotlarga asoslanib, olim Yunon-Baqtriya tarixining asosiy bosqichlarini qayta qurdi. Qadimgi adabiy an'analar va ikkita Yunon-Baqtriya tangasi asosida u, juda qimmatli ma'lumotlarni keltiradi.

Shuningdek, Yunon-Baqtriya tarixi bo'yicha eng muhim tadqiqotlar XX asr olimlari, masalan, V.V.Tarn, A.K.Narain va F.Xolt tomonidan yozilgan.

Britaniyalik ellinist tarixchi, ellinizm va Buyuk Aleksandr bo'yicha mutaxassis qolaversa, Britaniya akademiyasining a'zosi Ser Uilyam Vudtorp Tarnning *The Greeks in Bactria and India* (*“Baqtriya va Hindistondagi yunonlar”*)⁵ nomli monumental asari nashr etilgan. U ushbu asarida Yunon-Baqtriya davlatining

⁴ Байер Г.З. История Бактрийского царства греков. Монография. – Санкт-Петербург: типография Академии наук, 1738. – 224 с.

⁵ Tarn W.W. The Greeks in Bactria and India. 3 rd ed. with a pref. and new bibliography by Frank Lee Holt. – Chicago: Ares Publishers Inc, 1985. – lix, 561 p.

me'morchiligi va shaharsozligining sharqiy Erondan kelib chiqqanligini aytib o'tadi va bu fikrni ilgari suradi.

Hindistonlik tarixchi, numizmatist va arxeolog Avadx Kishor Narain, Janubiy va Markaziy Osiyoga oid mavzularda ko'p tadqiqotlar olib borgan va ma'ruzalar qilgan. U eng ko'p 1957-yilda Clarendon Press tomonidan nashr etilgan *"The Indogreeks"* (*"Hind yunonlari"*)⁶ kitobi bilan tanilgan bo'lib, unda u britaniyalik tarixchi ser Uilyam Vudtorp Tarning tezisini muhokama qilgan.

Frank Xolt – Markaziy Osiyoga tadqiqotlariga ixtisoslashgan amerikalik arxeolog va yozuvchidir. Xolt Xyuston universitetida, Aleksandr Makedonskiy, Ellinistik Osiyo va numizmatika bo'yicha yetakchi olim sifatida tan olingan. Frank Li Xolt to'qqizta kitob va saksonga yaqin ilmiy maqolalar muallifi bo'lib, asosan Aleksandr Makedonskiy davri va Afg'onistonning ellinizatsiyasiga bag'ishlangan⁷.

Rus sharqshunosligida bu davr bilan shug'ullangan tadqiqotchilardan biri S.P.Tolstov⁸ esa *"Mustaxkamlangan aholi punktlari qadimgi Ahamoniylar davrida bunyod etilgan, ellenistik davrga borib taqaladigan istehkomlarning hech biriga yunonlarning ta'siri sezilmaydi"* – deb ta'kidlaydi. Shu o'rinda aytib o'tish joizki, Yunon-Baqtriya davlatining mavjud bo'lganligiga 1950-1960-yildagi ko'plab rus tadqiqotchilari ishongan va shu g'oyani ilgari surgan. Aynan shu masalaga V.M.Masson o'zining *"Markaziy Osiyoning arxeologik yodgorliklari va yunon-rim ta'siri va aloqalari"*⁹ nomli asarida quyidagicha fikr bildirib, Baqtriyada ko'rib chiqilaytogan davrda yunon ta'sirining mavjudligi nazariy jihatdan ma'lum edi deb aytadi.

20 yildan ortiq vaqt davomida Tojikiston janubidagi *Taxti-Sangin ibodatxona* majmuasini qazish ishlarini olib borgan arxeolog Igor Rubenovich Pichikyaning *"Baqtriya madaniyati. Ahamoniylar va ellenizm davri"*¹⁰ mavzusidagi doktorlik ishida Baqtriya madaniyati haqida muhim ma'lumotlar beradi. Uning ushbu monografiyasining ikkinchi qismi bevosita ellenistik davrga bag'ishlangan. I.R.Pichikyan ellenistik tasviriy san'at, haykaltaroshlik, arxitektura, epigrafiyaning

⁶ Narain A.K. The Indo-Greeks. XVI, 204 p., 6 plates, 3 maps. – Oxford: Clarendon Press, 1957. 42 s.; Narain A.K. The Indo-Greeks. – Delhi: B.R. Publishing Corporation, 2020. – 595 p.

⁷ Holt Frank L. Alexander the Great and Bactria. The Formation of a Greek Frontier in Central Asia. – Brill, 1988. – 125 p.; Holt Frank Lee. Thundering Zeus: the making of Hellenistic Bactria. – University of California Press, 1999. – 248 p.; Holt Frank L. When Money Talks: A History of Coins and Numismatics. – Oxford University Press, 2021. – 272 p.

⁸ Толстов С.П. Подъем и крушение империи эллинистического «Дальнего Востока» // Вестник древней истории, №3-4. – Москва, 1940. – С. 194-209.

⁹ Массон В.М. Археологические памятники Средней Азии и греко-римское влияние и связи // Problemi attuali di scienza e di cultura. Atti del Convegno sul tema: La Persia e il mondo greco-romano. Roma. Acad. nazionale del Lincei. Anno CCCLXIII, 1966. № 76. – 340 c

¹⁰ Пичикян И.Р. Культура Бактрии. Ахеменидский и эллинистический периоды. – Москва: Наука, 1991. – 158 с.; Пичикян И.Р. Культура Бактрии (ахеменидский и эллинистический периоды): автореферат дис. ... доктора исторических наук: 07.00.09. – Москва, 1992. – 38 с.: ил.

eng muhim tomonlarini tasvirlabgina qolmay, balki kitobxonlarga ushbu asarlarni tarixiy va madaniy jihatdan mukammal tahlil qilish imkonini beradi.

O'rta Osiyo bilan bog'liq bo'lgan antik geografik tarkib manbalarining tizimli o'rganilishi sovet va rus tarixchisi hamda sharqshunosi, Markaziy Osiyoning qadimgi tarixi tadqiqotchisi Igor Vasilyevich Pyankovning "*Qadimgi geografik an'anada Markaziy Osiyo: Manbashunoslik tahlili*"¹¹ asarida ham aks etgan. Aynan bu tadqiqot ishida Markaziy Osiyoning geografik tarixi, hududlarning o'zgargan tarkibi, Buyuk Ipak Yo'lining shakllanishining boshlanishi to'g'risida ma'lumot beriladi. Bugungi kunda Britaniya muzeyida saqlanayotgan Ahamoniylar oltinining katta xazinasini bo'lgan Oks xazinasini *Taxti-Sangin* va uning atrofidan topilgan. *Taxti-Sangin* – "*Oks ibodathonasi*" haqidagi ko'plab nashrlar B.A.Litvinskiy¹² va yuqorida kelgan olim I.R.Pichikyan nashrlarida mavjud bo'lib ular bugungi kunda ham juda qimmatli hisoblanadi.

XULOSA

Xulosa sifatida aytish kerakki, Qadimgi Baqtriya tarixi va madaniyatini o'rganish muhim, chunki bu mintaqa jahon tarixining rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan va ta'sir k'rsatib kelmoqda. Ushbu davlatlarning tarixini yoritishda o'z davri manbalari yetarlicha ekanligi bilan ajralib turadi. Ularni ilmiy asosda tahlil etish bugungi yosh tadqiqotchilar oldida turgan dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Shu o'rinda manbalarda ushbu hududlarning bir butun sifatida Salavkiylar davlati tarkibida jamlanish jarayonlaridagi ma'lumotlar manbalarda turlicha yoritilganligini ko'rsatdi. Yunon-Baqtriya davlatida ham Ellenizmning bir qancha ko'rinishlarini kuzatish mumkin. Jumladan, bir davlatning o'zida bir vaqtning o'zida har xil millatlarning madaniyatining uyg'unlashuvini kuzatish mumkin. Shu o'rinda Ellin davlatlarining tadqiq etilishi, ellanistik madaniyat bilan bir qatorda Buyuk karvon yo'lining naqadar keng qamrovga ega ekanligini ochib berish masalasi muhim va dolzarbligicha qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdullayev A. O'rta Osiyoda boshqaruv va birinchi davlatchilik tarixshunosligi. – Toshkent, 2009.
2. Axmedov B. O'zbekiston tarixi manbalari. (Qadimgi zamon va o'rta asrlar). – O'qituvchi. 2021.

¹¹ Пьянков И.В. Средняя Азия в античной географической традиции: Источниковедческий анализ. – Москва: Восточная литература, 1997. – 344 с.

¹² Литвинский Б.А. Храм Окса в Бактрии (Южный Таджикистан). Том 3. Искусство, художественное ремесло, музыкальные инструменты. Монография. В 3 томах. – Москва: Восточная литература, 2010. – 664 с.: ил.

3. Bekmuradov S.T, Muxtorova G.A. Qadimgi Xorazmda Siyovushiyilar sulolasi tarixi va tarixshunosligi // Educational Research in Universal Sciences. Volume 2, Special issue 3. 2023. – P. 716-723.
4. Boppearachchi O. Monnaies Greco-bactriennes et Indo-grecques. Catalogue Raisonne. – Paris, 1991. – 535 p.
5. Eshov B. Odilov A. O‘zbekiston tarixi. I jild. – Toshkent: «Yangi asr avlodi», 2014.
6. Rtveladze E.V. O‘zbekistonning tarixiy o‘tmishi. *To‘ldirilgan, 2-nashri*. – Toshkent: “San’at Jurnali” nashriyoti, 2009. – 240 b.
7. Sagdullayev A.S. O‘zbekiston tarixi. I kitob. – Toshkent: «Donishmand ziyosi» МЧЖ, 2021.
8. Tarn W.W. The Greeks in Bactria and India. 3 rd ed. with a pref. and new bibliography by Frank Lee Holt. – Chicago: Ares Publishers Inc, 1985. – lix, 561 p.
9. Байер Г.З. История Бактрийского царства греков. Монография. – Санкт-Петербург: типография Академии наук, 1738. – 224 с.
10. Зиё А. Ўзбек давлатчилиги тарихи: (Энг қадимги даврдан Россия босқинига қадар). – Тошкент: “Шарқ”, 2000.
11. Квинт Курций Руф. История Александра Македонского. С приложением сочинений Диодора, Юстина, Плутарха об Александре. 2-е изд., испр. / Отв. ред. А.А.Вигасин, сверка перевода О.В.Смыки, комм. А.В.Стрелкова, С. В. Новикова, А.А.Вигасина. – Москва: Издательство МГУ, 1993. – 464 с.
12. Литвинский Б.А. Храм Окса в Бактрии (Южный Таджикистан). Том 3. Искусство, художественное ремесло, музыкальные инструменты. Монография. В 3 томах. – Москва: Восточная литература, 2010. – 664 с.: ил.
13. Массон В.М. Археологические памятники Средней Азии и греко-римское влияние и связи // Problemi attuali di scienza e di cultura. Atti del Convegno sul tema: La Persia e il mondo greco-romano. Roma. Acad. nazionale del Lincei. Anno CCCLXIII, 1966. № 76. – 340 с
14. Пичикян И.Р. Культура Бактрии (ахеменидский и эллинистический периоды): автореферат дис. ... доктора исторических наук: 07.00.09. – Москва, 1992. – 38 с.: ил.
15. Пичикян И.Р. Культура Бактрии. Ахеменидский и эллинистический периоды. – Москва: Наука, 1991. – 158 с.
16. Пьянков И.В. Средняя Азия в античной географической традиции: Источниковедческий анализ. – Москва: Восточная литература, 1997. – 344 с.
17. Ртвеладзе Э.В. Алимова Д.А. История государственности Узбекистана / Отв. Ред. Т.1. - Ташкент: «Узбекистан», 2009.

18. Толстов С.П. Подъем и крушение империи эллинистического «Дальнего Востока» // Вестник древней истории, №3-4. – Москва, 1940. – С. 194-209.
19. Narain A.K. The Indo-Greeks. XVI, 204 p., 6 plates, 3 maps. – Oxford: Clarendon Press, 1957. 42 s.
20. Narain A.K. The Indo-Greeks. – Delhi: B.R. Publishing Corporation, 2020. – 595 p.
21. Holt Frank Lee. Thundering Zeus: the making of Hellenistic Bactria. – University of California Press, 1999. – 248 p.
22. Holt Frank L. Alexander the Great and Bactria. The Formation of a Greek Frontier in Central Asia. – Brill, 1988. – 125 p.
23. Holt Frank L. When Money Talks: A History of Coins and Numismatics. – Oxford University Press, 2021. – 272 p.